PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

XALQ DOSTONLARIDA ISTE'MOL DOIRASI CHEKLANGAN SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

Abduqahhorova Muattar Ma'rufjon qizi
TDYU huzuridagi Namangan viloyat
akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi
Namangan, O'zbekiston
abduqahhorovamuattar@gmail.com

Do'sqobilov Xojiakbar
TDYU huzuridagi Namangan viloyat
akademik litseyi 103-guruh o'quvchisi
mansurvc@icloud.com
Namangan, O'zbekiston
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20523811

Annotatsiya: Mazkur maqolada folklor namunalari tarkibidagi iste'mol doirasi cheklangan so'zlarning qo'llanilishi, ularning leksik-semantik xususiyatlari va etimologiyasi haqida so'z boradi.
Kalit so'zlar: folklor, leksema, dialektologik birlik, sheva, frazeologizmlar, shevaga xos so'zlar, leksik ma'no.

Аннотация: В данной статье говорится об использовании слов с ограниченной сферой употребления в фольклорных образцах, их лексико-семантических особенностях и этимологии.
Ключевые слова: фольклор, лексема, диалектологическая единица, диалект, фразеологизмы, диалектные слова, лексическое значение.

Annotation: This article talks about the use of words with a limited scope of use in folklore samples, their lexical-semantic features and etymology.
Keywords: folklore, lexeme, dialectological unit, dialect, phraseological units, dialectal words, lexical meaning.

Xalq og'zaki ijodiyoti namunalari hamisha o'zining betakror tili va uslubi bilan ilm ahlini izlanishlar ummoniga g'arq etib kelmoqda. Ularda qo'llanilgan leksemalar qay jihatdan tahlil qilinmasin, o'rganilmasin o'zining sir-asrorlari bilan yastanib boraveradi. Folklor namunasida kelgan bir so'z tahlilini qilish uchun asar asar paydo bo'lgan makon va zamonga, kuylovchi baxshining yashagan hududiga sayohat qilasiz.

Leksemlar ishlatilish doirasi jihatdan, avvalo, 2 guruhga bo'linadi: ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam va ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam.

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemlar o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy bo'lgan, hammaga tushunarli va hammaning nutqida bir xil darajada qo'llanadigan so'zlardir: qo'l, qosh, ko'z, daraxt, meva (otlar); oq, qora, katta, kichik, yaxshi, yomon (sifatlar): tez, oz, ko'p, atayin, jo'rttaga (sifat - ravishlar); yurmoq, o'qimoq, yozmoq (fe'llar) va boshqalar. Bunday leksemalar umumxalq lug'aviy birliklari deb ham yuritiladi.

Ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalar dialektga, kasb – hunar leksemasiga va jargon – argolarga xos so'zlardir. Jonli so'zlashuvda ishlatiladigan vulgarizmlar ham qo'llanilishi chegaralangan lug'aviy birliklar sanaladi. Dialektal leksika ma'lum hududda yashaydigan hamma kishilar qo'llaydigan, o'sha hudud aholisi nutqiga xos bo'lgan so'zlardir. Bundan tashqari dialektal

leksika faqat og‘zaki nutqqa xosdir. Bu jihatdan u oddiy so‘zlashuv leksikasiga o‘xshab ketadi. Lekin oddiy so‘zlashuv leksikasining qo‘llanilishi doirasi territoriya jihatdan chegaralangan bo‘lmaydi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida, xususan, dostonlar tilida biz yuqorida aytib o‘tgan iste’mol doirasi cheklangan so‘zlarni yetarlicha uchratishimiz mumkin. Qo‘llanilish doirasi chegaralangan so‘zlarning, frazeologizmlarning hozirgi kunda ham deyarli iste’moldan chiqib ketganlarini, yoki kam ishlatiladiganlarini aynan folklor durdonalaridan topishimiz mumkin.

Kakliklar charx urar tog‘da, qiyada,
Dunyoni kezasan huv deb piyoda,
Ko‘chalarda yurasan **bo‘lib aftoda**,
Anda bizday do‘stlarni ham yod ayla. [1, 187]

“Go‘ro‘g‘li” turkumi tarkibiga kiruvchi “Sarvinoz” dostonidan olingan yuqoridagi misralarda qo‘llangan “aftoda bo‘lmoq” qo‘shma fe’li tarkibidagi aftoda so‘zi fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, bugungi kunda iste’mol jihatidan ancha sustlashgan, uslubiy xoslangan so‘zlar sirasiga kiradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu so‘z notavon, nochor, yiqilgan, darmonsiz, tushkun holatli kabi ma’nolar bilan izohlanadi. Hozirgi o‘zbek tilida ushbu so‘zning “aftodahol” shaklidagi variantini ko‘rishimiz ham mumkin. Yuqoridagi tarzda fe’l shakli esa ayrim hollardagina ko‘zga tashlanadi.

Sen kimdirsan bir sahroyi beadab,
Qaytmasang, qaytarib qo‘yarman haydab,
Shumshuk norlaringni kelasan qadab,
Nom ko‘targan nor tuyamning oldiga. [1, 190]

Yuqoridagi to‘rtlikda kelgan **shumshuk** so‘zi O‘zbek tilining izohli lug‘atida qilmishi yomon, xatti-harakati bilan kishiga xunuk ko‘rinib qolgan, yoqimsiz holatga tushgan; yoqimsiz ma’nolarida va shunday holatga nisbatli haqoratni bildirishi izohlangan. “Sarvinoz” dostonidagi ushbu misralardagi shumshuk so‘zi ham tuyalarga nisbatan haqoratli so‘z sifatida qo‘llangan. Ushbu so‘z bugungi kunda uslubiy xoslangan sanalib, badiiy uslub tilida keng qo‘llaniladi. Shuningdek, O‘zbekistonning janubiy viloyatlari shevalarida ham bu so‘zning keng qo‘llanilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Vodiy hududi shevalarida, xususan, Namangan viloyati hududi shevalarida ushbu so‘zni deyarli uchratmaymiz. So‘z sof turkiycha bo‘lib, qardosh qirg‘iz tilida ushbu so‘z keng qo‘llaniladi.

Kiprigim sipirsin etak-boshingni,
Shu bugun **yitirdim** aql-u hushimni,
Opajon, o‘ng‘argin mening ishimni,
O‘zing mungdosh bo‘lib dard-u dilimga. [1,192]

Xalq dostonlarida aynan dostonlar tilida uchrovchi birliklarni, ko‘plab uchratishimiz mumkin. Bundayin leksemalar bir emas bir necha dostonlarda qo‘llanilib keladi. Yuqoridagi to‘rtlik tarkibida kelgan **yitirdim** leksemasi yitirmoq fe’li bo‘lib, yo‘qotmoq ma’nosini anglatadi. Yuqoridagi misralarda ham qahramon kanizak qiz tomonidan malikaga nola qilish davomida unga aql-hushini yo‘qotganligini bildirilmoqda. Ushbu fe’lni biz “Alpomish”, “Rustamxon”, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi bir necha dostonlar, xususan, uchinchi doston “Chortoqli chambil”, oltinchi doston “Hasanxon”, o‘n to‘rtinchi doston “Sarvinoz” dostonlarida uchratishimiz mumkin. Xuddi shunday xoslangan yana bir leksemani quyidagi misolda ham ko‘rishimiz mumkin:

“Go‘ro‘g‘li sultonga salom berib, o‘zining ichkariga, xos bog‘iga olib kirib, Go‘ro‘g‘li sultonni maxsus joyga o‘tirtib, o‘zi Go‘ro‘g‘li sultonning to‘g‘risida o‘tirib, Go‘ro‘g‘li sultonga qarab, **marg‘ulini** tarab, zulfini burab, qo‘lida sozi, og‘zida so‘zi Sarvinozxon bir so‘z dedi…” [1,193]

Muloqotga kirishayotgan qahramonning xatti-harakatlarini yaqqol tasvirlashga xizmat qilayotgan marg‘ul so‘zi sochning orqa qismi ma’nosini anglatadi. Zulf esa manglaydagi gajaklar ma’nosida qo‘llangan. Ushbu birlik ham aynan o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti uchun xosdir.

Dostonlarda shevaga xos birliklarning ko‘plab uchrashi ham ularning xalqning qaynoq yuragidan to‘kilganliga yana bir dalildir. Shuni ham aytishimiz joizki, doston kuylovchi bashining ham ayrim so‘zlarni tanlab olishida hissasi katta bo‘ladi. O‘zi yashagan hudud elementlari aks etishi mumkin.

Barakalla, sher yurakli **g‘o‘ch yigit**,
Seni ko‘rdim, hech armonim qolmadi,
Bir umrga shu bir istagim,
Yuzing ko‘rdim, hech armonim qolmadi. [2, 56]

“Chortoqli chambil” dostonidan keltirilgan yuqoridagi to‘rtlikda g‘o‘ch yigit birikmasi mard, tanti, botir yigit kabi ma’nolarni anglatadi. G‘o‘ch leksemasi shevaga oid birlik hisoblanishi bizga izohli lug‘atdan ma’lum. Dostonda ushbu birlikning boshqa bir ko‘rinishini ham uchratishimiz mumkin:

Chambilbelga navkar kerak, el kerak,
Bir necha navqiron, **g‘o‘chchoq ul** kerak,
Mayxonaga soqi, kosagul kerak,
Men kelgancha, qarab turgin Chambilga.[2, 55]

G‘o‘chchoq so‘zi ham mard, botir ma’nosini anglatadi, ul esa o‘g‘il so‘zining dialektologik variant sanalib, yuqoridagi birikma bilan ayni ma’noni anglatadi.

“Agar o‘g‘ri-qochqinchi bo‘lsa, buni o‘zlarimizga qo‘shib olishimiz kerak, - deb maslahatlashib, **gazadan** Go‘ro‘g‘libekning olini o‘rab chiqdilar” [2,55]

O‘zbek tilining izohli lug‘atia “gaza” so‘zi tepalik, adir, qir, do‘nglik deya izohlangan. Biz tahlil qilayotgan xalq ijodiyoti namunasida ham ushbu so‘zni uchratamiz, ammo matn ma’nosidan yondashsak, bu yerda gaza so‘zi adir va balandlik ma’nolaridan ko‘ra ko‘proq hilvat, pistirma ma’nolariga to‘g‘ri kelmoqda.

Yuqoridagi kichik tahlillarimizdan shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, dostonlar o‘zining zamiriga yashirgan durdona so‘zlari orqali tilimizning leksik, semantik, stilistik jihatlarini ochib bera oladi. Iste’mol doirasi cheklangan so‘zlar, umuman, xalq tilidan o‘chib ketayotgan va bugungi kunda deyarli ishlatilmay qo‘ygan leksemalarni dostonlarimizdan topishimiz mumkin. Bunday leksemalar dostonlarda doston tilining naqadar boy ekanligi, o‘z qarida o‘zbek tilining chinakam durdona so‘zlari borligini isbotlab keladi. Birgina leksemaning turli ma’nolari, yoki bir so‘zning bir necha xil variantlarini, dialektologik birliklarning o‘z o‘rnida mohirona qo‘llanganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Har bir birlik o‘zining tegishlilik hududidan, foydalanuvchi aholisidan, doston kuylovchisining yashash manzilidan so‘zlab beruvchi tirik manbadir.

Adabiyotlar:

1. Go‘ro‘g‘li turkumi. Sarvinoz – Toshkent: Sharq, 2006. – 200 bet.
2. Go‘ro‘g‘li turkumi. Chortoqli chambil – Toshkent: Sharq, 2006. – 200 bet.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдлик. 1-жилд – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 бэт.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдлик. 2-жилд – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 671 бэт.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдлик. 3-жилд – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 687 бэт.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдлик. 5-жилд – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 592 бэт.